

**“ZAMONAVIY PSIXOLOGIYADA
ILMIY TADQIQOTLAR:
MUAMMOLAR, YUTUQLAR,
INNOVATSIYALAR”**

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

2023 yil 19-20 may

Buxoro

“Zamonaviy psixologiyada ilmiy tadqiqotlar: muammolar, yutuqlar, innovatsiyalar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman to`plami // Buxoro, 2023-yil 19-20-may. – 486 b.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-sonli Qarorlarida belgilangan tadbirlar ijrosini ta’minlash maqsadida 2023-yilning 19-20 may kunlari Buxoro davlat universitetida **“Zamonaviy psixologiyada ilmiy tadqiqotlar: muammolar, yutuqlar, innovatsiyalar”** mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman o‘tkaziladi.

Mazkur konferensiya to‘plamida bir yuz ellikdan ortiq maqolalar jamlangan.

Tahrir hay’ati:

Xamidov O.X. – Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Rasulov T.H. – Fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor;
Barotov Sh.R. – Psixologiya fanlari doktori, professor;
Karimova V.M. – Psixologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov A.M. – Psixologiya fanlari doktori, professor;
Nishonova Z.T. – Psixologiya fanlari doktori, professor;
Huseynova A.A. – Falsafa fanlari doktori, professor;
Abdullayeva B.S. – Psixologiya fanlari doktori, professor;
Akramova F.A. Psixologiya fanlari doktori, professor;
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori, dotsent;
Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori, dotsent;
Nazarov A.M. – psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), professor;
Usmanova M.N. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Jumayev U.S. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Ostanov Sh.Sh. – psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Rustamov Sh.Sh. – psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Koordinatorlar: Nazarov A.M., Usmanova M.N., Ostanov Sh.Sh.

Maqolalarning to‘g‘ri va aniqligiga mualliflar mas’uldir.

© **Zamonaviy psixologiyada ilmiy tadqiqotlar: muammolar, yutuqlar, innovatsiyalar**

O'SMIRLARDA JINOYAT MOTIVLARINI KELTIRIB CHIQUARUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR

Olimov L.Y.,

Buxoro davlat universiteti dotsenti

Savriddinova G.S.

Buxoro davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada o'smirlarda jinoyat motivlarini keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik omillari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat motivlari, jinoyat xulq-atvor, jinoyatchilik, endomorf, mezomorf, ektomorf.

Jahonda yuqori malakali, raqobatdosh, mustaqil fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Dunyoning yetakchi ta'lim muassasalarida, jumladan Xalqaro psixologiya fanlari ittifoqi – IUPsuS (International Union of Psychological Science) tomonidan 2018-2023 yillarga mo'ljallangan "Psixologiya sohasini yanada takomillashtirish konsepsiyasi"da malakali psixologlarni tayyorlash, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olish borasida amaliy ishlarni rivojlantirish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Jinoyatchilik muammosini o'rganish ishlariga tadqiqotchilar juda qadimdan qiziqib kelishganlar. Ammo qadimda jinoyatchilik muammosini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar o'zining bir yoqlamalilik xarakteriga ega ekanligi bilan ajralib turgan. Shuning uchun bunday tadqiqotlar ilmiy-uslubiy yoki profilaktik ahamiyat kasb etmagan.

Biroq jinoyatchilikni o'rganish borasida olib borilgan bunday tadqiqotlar bu muammoni keyingi davrlarda ilmiy tadqiq qilishga ma'lum darajada munosib hissa qo'shgan.

XIX asrning birinchi yarmiga kelib Yevropada «antropologik kriminalistika» maktabi paydo bo'ldi. Bu maktab namoyondalari qarashlarining jinoyatchilik bo'yicha o'zidan oldingi tadqiqotchilar qarashlaridan farqli tomoni jinoyatchilik sababini jinoyatchi shaxsidan, uning ichki dunyosidan izlash lozimdir degan ta'limotni o'rta tashlaganligidir. Shu bilan bir qatorda ushbu yo'nalish vakillaridan hisoblangan Chezare Lombrozo, Enriko Ferri, Marro, Gorofalo va boshqalar jinoyatchi shaxsini, uning o'ziga xos xususiyatlarini va ular xulq-atvorini ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida emas, balki biologik jarayon natijasi sifatida talqin qiladilar. Bu ta'limotga ko'ra, jinoyatchilik xulqi ijtimoiy munosabatlar va muhit ta'siri natijasida paydo bo'lmaydi, balki shaxsning biologik, fiziologik va psixologik xususiyatlari natijasiga ko'ra, yuzaga keladi deb tuchuntiriladi.

Lombrozaning ta'kidlashicha, jinoyatchilik xulqi kelib chiqishining asosiy sababi shaxsning anatomo-fiziologik anomalligi va psixik xususiyatlariga bog'liqdir. O'z davrida Lombrozaning shogirdi Ferri shunday deb ta'kidlagan edi: «Jinoyatchilik sabablarini biologik anomaliyasiz na fiziologik, na ijtimoiy nuqtai nazardan izohlash mumkin bo'ladi».

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, bu davrga kelib jinoyatchilik va uning sabablarini biologik nuqtai nazardan tuchun tirishga uringan ta'limot asta-sekin yuzaga kela boshlagan. Jinoyatchilikni biologik, nasliy nuqtai nazardan talqin qilishga harakat qilgan ta'limotga italyan huquqshunosi va psixiatri Chezari Lombroza tomonidan asos solingan bo'lib, uning «Tug'ma jinoyatchi nazariyasi» nomli asari yaratilgandan so'ng bu yo'nalish yanada rivoj topdi. Lombrozaning jinoyatchilikni nasliy omillari to'g'risidagi qarashlari uning «Jinoyatchi odam» nomli asarida batafsil bayon etiladi. Uning ta'kidlashicha, jinoyatchilik - tug'ilish, kasallik va o'lim singari tabiiy - biologik jarayondir. Kishilar jinoyatchi bo'lib shakllanmaydilar, balki jinoyatchi bo'lib tug'iladilar.

Lombroza jinoyatchi shaxsi tug'ma individual, psixo-fiziologik tashqi ko'rinishga ega bo'ladi, deb ta'kidlaydi. Masalan, deydi u: - «o'g'rilar tashqi ko'rinishiga ko'ra, kichik jussali,

ko'zlari ichiga botgan, o'ynoqi, qoshlari betartib, kamsiqol bo'lsalar, nomusga tajovuz qiluvchi jinoyatchilar esa ko'zlari charaqlagan, qalin labli, harakatlari va tana tuzilishi bejirim bo'ladi»

Jinoyatchilikni biologik nuqtai nazardan talqin qilishga harakat qiluvchi ta'limot vakillarining fikriga ko'ra, jamiyat va insoniyat jinoyatchilikka qarshi kurashishga ojizdir. Tug'ma jinoyatchilik belgilari bilan dunyoga keladigan jinoyatchilarga qarshi kurashning birdan bir yo'li ularni jismonan yo'qotish yoki kamdan-kam holatlarda qayta tarbiyalash, tuzatish ishlarini amalga oshirishdir deyiladi. Jumladan, "Jinoyatchilik xulqi bilan nasliy muhrlangan holda tug'ilgan bolalar va o'smirlarni qayta tarbiyalashda tarbiya usullari ojizdir" deydi – Lombroza.

Bu yo'nalishdagi ta'limotlar bugungi kunda ham ayrim mamlakatlarda o'z ta'sirini yo'qotmaganligi kuzatiladi.

Jinoyatchilik xulqini biologik nuqtai nazardan talqin qiluvchi ta'limot vakillaridan yana biri Sheldondir. U o'z tadqiqot va kuzatishlariga asoslanib jinoyatchilarni tashqi belgilariga (yuz tuzilishi, bo'yi, tanasiga) ko'ra, quyidagi guruhlarga bo'ladi:

1. Endomorf ko'rinishli jinoyatchilar - semiz, irodasiz, jismoniy faolligi sust, kamharakat va beg'am bo'ladilar.

2. Mezomorf - gavnali, suyak muskul tuzilishi rivojlangan, jismoniy faol, irodali, jur'atli kishilardir.

3. Ektomorf - ozg'in, uzun bo'lyi, introvert xususiyatli va kamgap odamlardir.

4. Muvozanatli tiplar - atrofdagilar e'tiborini ko'p ham tortmaydigan, unchalik ko'zga tashlanmaydigan kishilardir.

Ma'lumki, oilaviy tarbiya bola hayotida muhim o'rin tutadi. Oilaning bolalarga tarbiyaviy ta'sir doirasi ijtimoiy ta'sir doirasi singari o'ta kengdir. Oila bolalarni Vatanga muhabbat, ota-ona va atrofdagilarga sadoqat, mehnat va xalq boyliklariga ongli munosabat, nuqsonlarga muhosasizlik, yuksak axloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirishda, turmushga, ijtimoiy faoliyatga nisbatan psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashda kata imkoniyatlarga egadir. Biroq, keyingi yillarda oilada farzandlarimizni tarbiyalashda, ularni kamol toptirishda bir qator muammolar, nuqsonlarga duch kelinmoqda. Tabiiyki ushbu muammolar bolalar va o'smirlar xulq-atvoriga, shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan tadbirlar maqtovga sazavordir. Joylarda foydalanishga topshirilayotgan sport inshootlari, zamonaviy talablarga javob beradigan ta'lim maskanlarining bunyod etilishi, yoshlarimizning bo'sh vaqtlarida shug'ullanishlari uchun turli xil to'garaklarning barpo etilishi bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarning namunasidir. Ammo bu sohada hali qilinadigan ishlar ham bisyordir.

Oilada yetarlicha tarbiya ko'rmagan bolalar turmush qiyinchiliklaridan qoqiladi. Turli xil nizoli vaziyatlarga duch keladi. Tarbiyasizlik o'smirni yaxshi o'rtoqlaridan, davralardan ayiradi. Oqibatda o'smir uchun birdan-bir yo'l nosog'lom xulqli o'smirlar davrasiga qo'shilib ketish bo'lib qoladi. Qarabsizki, o'smirda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishi uchun shart-sharoit yaratiladi.

Oilaviy tarbiyada qo'pollik, andishasizlik, haqorat, do'q-po'pisa va jismoniy jazolash singari usullardan foydalanish ko'pincha bolalar va o'smirlarning uydin qochishiga, biron ish qilib qo'yib ota-onasidan qo'rqqanidan ko'chalarda daydib yurishiga, qaelardadir tunab qolishiga olib keladi. Bunday bolalar oila muhitiga nisbatan ijtimoiy psixologik dezadaptatsiyalanish jarayoniga duch keladilar. Oqibatda o'ziga ma'qul bo'lgan oiladan tashqari guruh yoki ko'cha muhitini qabul qiladi. Bu muhit o'zining xarakteriga ko'ra, bolaga salbiy yoki ijobiy ta'sir qilishi mumkin. Afsuski, nosog'lom muhit psixologiyasiga ega bo'lgan kucha muhiti bolalarga ko'p holatlarda salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Jinoyatchilik xulqining kelib chiqish sabablarini aniqlash eng avvalo u yuzaga kelgan ijtimoiy muhit xususiyatlarini o'rganib chiqishni taqozo qiladi. Chunki, jinoyatchilik xulqini umumiy ko'rinishida oladigan bo'lsak, u biror bir shaxsga xos bo'lgan sub'ektiv hulq-atvor

natijasi emas, balki sub'ektiv va ob'ektiv jarayonlar, shart-sharoitlar, munosabatlar natijasi sifatida yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda ijtimoiy jarayonlarning individual xatti-harakatlarga ta'siri masalasiga oydinlik kiritish zarur bo'ladi.

Ma'lumki inson ijtimoiy munosabatlar qurshovida yashaydi. Ijtimoiy munosabatlar va jarayonlarning shaxsga ta'siri masalasi ijobiy yoki salbiy ko'rinishda bo'lishi mumkin. Individga ijtimoiy jarayonlarning ijobiy yoki salbiy ta'sir etishi birinchidan, shaxsning individual-psixologik xususiyatlariga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan ijtimoiy muhit voqea-hodisalari xususiyatlari va shart-sharoitlari mazmuniga ko'ra namoyon bo'ladi. Ya'ni ijtimoiy muhitning sog'lom yoki nosog'lomligi va uning ta'sirchanlik darajasiga ko'ra, individga u yoki bu ko'rinishda ta'sir etadi va jinoyatchilik xulqining kelib chiqishi uchun qandaydir ma'noda imkoniyat yaratadi.

Jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga asos bo'luvchi omillarni ko'rib chiqar ekanmiz, birinchi navbatda shaxsning ma'naviy jihatdan qashshoqligi masalasiga alohida to'xtalib o'tish lozim bo'ladi. Shaxsning ma'naviy qashshoqligi ijtimoiy muhit va shaxs o'rtasidagi murakkab vaziyatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ma'naviy jihatdan barkamol bo'lgan shaxs ijtimoiy muhit voqea-hodisalariga nisbatan ijobiy munosabatini namoyon qiladi.

Shaxsning ijtimoiy va psixologik fazilatlarini ijtimoiy munosabatlar doirasida shakllanadi. Individ ijtimoiy muhit bilan aloqaga kirishi jarayonida xulq-atvor normalarini, ma'naviy, ijtimoiy va madaniy tuchun cha va tasavvurlarni, yangi-yangi qiziqish va ehtiyojlarni egallab boradi. Shuning bilan bir qatorda shaxs ijtimoiy muhit munosabatlari va insoniy taqdirning sust kuzatuvchisi bo'lmasdan, o'z turmush tarzini, shart-sharoiti va shaxsiy hayotini o'zi belgilaydi va quradi. Demak, shaxs shakllanishida insonning o'z qiziqishlari, intilishlari, maqsadlari muhim o'rin tutadi. Bunday fazilatlarga ega bo'lgan shaxs turli xil hayotiy voqea-hodisalar qurshovidan osonlik bilan chiqa oladi. Shuning uchun shaxsning ijtimoiy fazilatlarini, mustahkam va qat'iy hayotiy pozitsiyasini, maqsad va intilishlarini shakllantirish o'smirlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olishda muhim ekanligini unutmazlik kerak.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini o'rganishning ahvoli, jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlarning yosh va individual-psixologik xususiyatlari, ularning shaxsi va voyaga yetmagan jinoyatchilarning o'z-o'zini baholash xususiyatlari, g'ayriqonuniy ustanovka va qiziqishlarning voyaga yetmaganlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga ta'sir etishi hamda bolalar va o'smirlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganish natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarga keldik:

1. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi muammosini o'rganish yuzasidagi ilmiy tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, jinoyatchilik xulqini izohlashda bir yoqlamalilika yo'l qo'yilgan. Masalan, ayrim tadqiqotlarda jinoyatchilik xulqi sof ijtimoiy, ayrimlarida esa biologik yoki psixologik hodisa deb bir yoqlama talqin qilinadi.

2. Tadqiqotimiz natijalaridan ma'lum bo'lishicha, voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsga xos bo'lgan xususiyatlar sifatida asotsiallik, psixik beqarorlik impulsivlik, o'zgaruvchan va yengil xarakterlilik, qo'zg'aluvchanlik, hissiyotga beriluvchanlik, gipertimlik, affektga moyillik va shu kabilar kuzatiladi. Shuningdek, bolalar va o'smirlarning yosh davri inqirozlari xususan, o'smirlik yoshi davri inqirozi, o'tish davri qiyinchiliklari ularning psixo-fiziologik taraqqiyotidagi noturg'unlik, akseleratsiya jarayonlari, pubertat davri rivojlanish xususiyatlari, taqlidchanlik, emansipatsiya (kattalar nazorati va kuzatuidan ozod bo'lishga intilish), gidonistik (o'zgacha usullardan zavq-shavq olish, lazzatlanish) psixologiyasi, guruhlanish reaksiyasi va qarama-qarshi nuqtai nazar reaksiyasining namoyon bo'lishi va boshqalar xulq og'ishining kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

3. Jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlardagi gipertimlik, namoyishkorlik, o'zgaruvchanlik va yengil xarakterlilik, emotivlik, xavotirlanuvchanlik xususiyatlari ularda yosh davriga xos bo'lgan reaksiya darajalarining yuqoriligiga sabab bo'ladi. Shu boisdan bolalar va o'smirlar jinoyatchiligi kattalar jinoyatchiligidan mazmun va mohiyatida yosh davri xususiyatlarining aks etib turishligi bilan farqlanadi.

Adabiyotlar.

1. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O`smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. "Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.
2. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O`quv qo`llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.
3. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
4. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
5. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o`quv qo`llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
6. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o`gishgan bolalar psixologiyasi. O`quv qo`llanma. "Tafakkur avlodi" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
7. Olimov L.Ya., Bahronova M.O'. O`smirlar ma`naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.

TADBIRKOR AYOLLARNING IKKILAMCHI KASBIY FAOLIYATGA MOSLASHUV MUAMMOLARI

Ulug`ova Shahlola Musliddinovna,

Buxoro davlat universiteti dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

Annotation. This article will talk about the problems of adaptation of entrepreneurial women to secondary professional activities.

Keywords: secondary professional activity, adaptation, entrepreneurship.

Mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga yuz tutgan davrdan boshlab, tobora ko`proq kishilar, xususan, xotin-qizlar foydali tadbirkorlik sohasida tashabbus, omilkorlik va mahorat ko`rsatmoqdalar. Bunday sharoitda o`z-o`zidan aniqki, xotin-qizlar orasida erkin va ijodiy mehnatda yuqori natijalarga erishish uchun zarur bo`lgan iqtisodiy bilimlarga va iqtisodiy manfaatli faoliyatning barcha sohalarida ikkilamchi kasbiy faoliyatni egallab olishga intilish kuchayadi.

Internet ma`lumotlariga ko`ra, shaxs u yoki bu darajadagi yangi sharoit bilan to`qnash kelar ekan, yangi vaziyatga moslashish va unumli faoliyatni ta`minlash psixologiyaning asosiy vazifalaridan biridir. Zamonaviy psixologiya fanida bunday jarayon moslashish, deb ataladi hamda bu ibora yangi sharoitga xos bo`lgan shartlarni yangi mehnat egasi (masalan, tadbirkor ayollar) tomonidan o`zlashtirilishini nazarda tutadi. Bozor munosabatlari sharoitida xotin-qizlarning ikkilamchi kasbiy mehnat faoliyatiga moslashuvining asosiy jihatlari obyektiv va subyektiv omillarga bog`lab o`rganadigan fan – bu «Mehnat sotsiologiyasi va psixologiyasi» fanidir. Mazkur fanda faoliyatga moslashuvning quyidagi ikkita o`zaro bog`liq asosiy jihatlari farqlanadi:

- kasbga moslashuv;
- ijtimoiy moslashuv.

Kasbga moslashuv shaxsdan bajariladigan ishga qo`yiladigan talablarni o`zlashtirishni taqozo qiladi. Bu xil moslashuvda obyektiv va subyektiv omillar mavjud bo`lib, kasbiy moslashuvning obyektiv omillari sifatida xotin-qizlarning ma`lumoti, malakasi va tajribasini sanab o`tish mumkin. Subyektiv omillar qatoriga esa xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyati (kasb)ga bo`lgan munosabati, yangi ish joyidan kutayotgan daromadi va foydasini kiritish

MUNDARIJA

- 3 **Хамидов Обиджон Хафизович**
Уважаемые гости и участники!!
- 4 **I-SHO`BA.**
ZAMONAVIY PSIXOLOGIYA METODOLOGIYASI
- 5 **Bafayev M.M.**
Etnik tolerantlik zamonaviy shaxs fazilati sifatida
- 8 **Axrorov P.Q.**
Amerika psixologiya maktabi namoyondalarining zamonaviy tadqiqotlarining o‘ziga xos jihatlari.
- 11 **Botirova M.B., Amonov A.A.**
Noto‘liq oilalardagi o‘smirlarning ijtimoiylashuvi jarayonining tashqi va ichki determinatlari.
- 14 **Жураев В.М.**
Спортчи даъвогарлик даражасининг психологик хусусиятлари.
- 17 **Usmonov Sh.M.**
Alfred Adler nazariyasida “kamchilik va ustunlik” holati.
- 20 **Xudoyqulova G.B.**
Rasmiy va norasmiy guruhlardagi psixologik muhitni o‘rganish imkoniyatlari.
- 23 **Абдуллаева Д.У.**
Онанинг фарзандга муносабатини белгилаб берувчи ижтимоий- психологик омиллар.
- 26 **Abdumadjidova D.R.**
Psychological training and opportunities for athletes to improve the effectiveness of sports achievements.
- 30 **Абылгазиева А.Д., Дорохова С.В.**
Уровень развития коммуникативных умений у студентов-психологов как компонент коммуникативной компетентности.
- 35 **Agayeva D., Jabborov A.M.**
Tarixiy manbalarda oila-nikoh mustahkamligining muhim jihatlari haqida.
- 37 **Varnoyeva Y.R., Elov Z.S.**
Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olishning ijtimoiy-psixologik sabablari.
- 40 **Волченкова А.А., Зенкова А.В.**
Особенности толерантности подростков в цифровую эпоху.
- 44 **Григорьев С.Ю.**
Некоторые интерпретации категории рефлексии в психологии.
- 46 **Деҳқонбоев Ш.О.**
Ментально-арифметическая характеристика развития интеллекта подростков в современном обществе.
- 49 **Джаббаров Х.Х.**
Социально-психологические методы воспитания национальных характеристик у молодежи.
- 54 **Ишанкулова Г.**
Ўзбек оилаларида гендер тенглик ва гендер стереотипларнинг намоён бўлиши.
- 56 **Касимова С.Б.**
Психологическая защищенность личности от манипулятивных воздействий как функция психологической культуры студентов.
- 60 **Kudratov A.I.**
Shaxs ehtiyojlarini tadqiq etishning nazariy asosi.
- 62 **Кулиев Ё.К., Рахмонова Н.Е.**
К некоторым аспектам коррупционных проявлений среди государственных служащих.
- 66 **Рахимова И.И.**
О сущности понятия социальная активность.
- 69 **Рўзиев У.М.,**
Ижтимоий вазиятлардан қўрқиш ёки ижтимоий фобия
- 73 **Ro‘ziyeva F.F., Ramazonov J.D.**
Farzand ruhiy kamolotida SHarq va G‘arb mutafakkirlarining qarashlari, islomiy oilalarda deviantlikni oldini olish yo‘llari.
- 77 **Sa’dullayeva Sh.A.**
“Qiyin hayotiy vaziyatni boshdan kechirayotgan insonning himoya mexanizmlari va xatti-harakatining psixologik xususiyatlari”.
- 79 **Saidov A.I.**
Yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida.
- 82 **Усманова М.Н.**
Влияние мотивации на успешность учебной деятельности студентов.

- 85 **Farhodova M.S., Elov Z.S.**
O'smirlik davri inqirozlarining ijtimoiy-psixologik sabablari.
- 88 **Федорова В.М.**
Эффекты воздействия на человека традиционными якутскими музыкальными инструментами (хомусом, бубном).
- 92 **Хамитова Ш.М.**
Значение доверия и его мотивационное влияние на экономические системы.
- 96 **Хохлова Л.П., Токарев С.Г.**
Феномен инверсии самовосприятия и понимания самих себя лицами с диагностированными психическими расстройствами и расстройствами поведения.
- 101 **Xudayorov U.G'.**
O'zbekiston psixologlari tomonidan yoshlar muammosining o'rganilish masalalari.

2-SHO'BA.

PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL QILISH

- Akramova F.A.**
106 Psixologik xizmat ko'rsatishda oilaviy maslahatning asosiy vazifalari hamda uning samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillar
- 109 **Баратов Ш.Р.**
Психологическое сопровождение в системе образования Узбекистана.
- 112 **Bilolova Z.B.**
Psixologik xizmatni olib borishda ishontirish mexanizmining psixologik ta'siri
- 114 **Axmedova Z.J., Ismatova D.T.**
Motiv va motivatsiya.
- 117 **Ganjiev F.F.**
Agressiv va autoagressiv o'smirlarni jamiyatga moslashishining ijtimoiy-psixologik omillari.
- 119 **Olimov L.Y., Jo'rayeva Z.A.**
Sud-psixologik ekspertizalarning o'ziga xosligi.
- 122 **Kozimova N.A., Ulug'ova Sh.M.**
Psixologik konsultatsiyaga murojaat qiluvchi shaxslar tipologiyasi.
- 125 **Nusratova M.B.**
Psixologik konsultatsiyaga muhtoj shaxslar tipologiyasi
- 129 **Maxmudova Z.M., Samadova N.N.**
Sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligi va emotsional intellekti o'rtasidagi korrelyatsiyon bog'lanishlar.
- 132 **Qosimov U.A.**
Tasavvuf ta'limoti ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.
- 136 **Safarova S.G'.**
Bo'lajak psixologlarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.
- 138 **Maxmudova Z.M., Samadova N.N.**
Qo'riqlash xizmatida psixologik xizmatning o'ziga xosligi.
- 144 **Sattarova G.I.**
Jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'smirlarning hissiy-irodaviy sifatlarini shakllantirish.
- 146 **Бешимова М.О., Усманова М.Н.**
Адаптация первокурсников к образовательной среде.
- 149 **Гайбуллаев А.А.**
Социально-психологические механизмы нормализации буллинга поведения у подростков с помощью психокоррекционной работы.
- 153 **Казимова Л.Т.**
Организация психологической службы
- 156 **Коротаева А.И., Турчина Е.К.**
Взаимосвязь проявления агрессии и гендерной идентичности младших школьников.
- 157 **Никифоров А.М.**
Использование метода гештальттерапии в дыхательных процессах
- 161 **Primova Sh. Sh., Sattarova G.I.**
Oilaviy bolalar uyi sharoitida tarbiyalanuvchilar deprivatsiyasi.
- 164 **Ruziev U.M., Muzaффарова M.Y.**
Ижтимоий фобиянинг ўзига хос хусусиятлари ва уни олдини олиш.
- 168 **Hakimova F.X.**
Oila instituti va ijtimoiy-psixologik xizmatlar.
- 170 **Xamdamova M.X., Asanova G.M.**
Психологическая служба в школе.

- 173 **Эргашева Л.И.**
Удовлетворенность образовательной средой субъектов педагогического процесса.
3-SHO`BA.
- TIBBIYOT VA SALOMATLIK PSIXOLOGIYASI**
- 176 **Сабирова Д.А.**
Особенности формирования эгокомпетентности у медицинских работников.
- 180 **Alarova Z.R., Qodirova D.M.**
Kattalardagi gemotologik kasaliklarni psixilogik tahlili.
- 182 **Axtamova F.G.**
Tibbiyot psixologiyasidagi tarmoqlarning vujudga kelishi va vazifalari.
- 185 **G'aybulloeva N.X., Olimov L.Y.**
Oiladagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarning bola nutqining rivojlanishiga ta'siri.
- 188 **Izbulayeva S.A., Ganjiyev F.F.**
Bolalarning nutqiy rivojlanishida ijtimoiy-psixologik omillarning ta'siri.
- Shadiyev F.**
190 Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy - psixologik omillar.
- 193 **Jumaniyozova N.R.**
Farzandiga autizm tashxisi qo'yilgan oilaning ijtimoiy munosabatlarini o'rganish.
- 195 **Исмоилова З.И., Элов З.С.**
Maktabgacha ёшдаги болаларнинг аклий ривожланиш моделлари.
Казанцева А.В., Еникеева Р.Ф., Давыдова Ю.Д., Тахирова З.Р., Мустафин Р.Н., Яковлева Д.В.,
- 197 **Лобаскова М.М., Малых С.Б., Хуснутдинова Э.К.**
Формирование невербального интеллекта как результат взаимодействия средового и генетического компонента.
- 201 **Камилова М.**
Oилада юридик тушунчалар шаклланишида шахс асаб тизими типларининг таъсири.
- 205 **Козлов В.В., Власов Н.А.**
Комплексное посттравматическое стрессовое расстройство: взгляд клинициста.
- 206 **Конаш О.В.**
Психофизиологические основания категории субъективного времени человека.
- 210 **Лучистая Р.С.**
Психофизиологические основания категории "субъективного времени" человека.
- 213 **Орзукулова Ч.Р.**
Рухий саломатлик, рухий саломатликни белгиловчи омиллар ва ўрганилганлиги.
- 216 **Тагильцева Т.А.**
Научные основы интегративного подхода в семейной психотерапии.
- 218 **Камакина О.Ю., К.А.Турченяк.**
Специфика коммуникативных навыков младших школьников с нарушением интеллекта.
- 219 **Файзиев З.**
Шахс психологиясида стрессорларнинг намоён бўлиши ва унинг аломатлари.
- 223 **A'zamova M.A., Hasanova Z.T., Axtatova S.Q.**
Tug'ruqdan keyingi depressiyaning psixologik sabablari.
4-SHO`BA.
- SHAXS IJTIMOY VA KASBIY RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI**
- 227 **Adizova G.F., Qaxxorova D.S.**
Maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy psixologik tomonlari.
- 230 **Eshov E.S., Ashrapov I.I.**
Din psixologiyasida zamonaviy shaxs shakllanishining amaliy jihatlari.
- Axmedova Z.J.**
233 Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatiga moslashuvining pedagogik-psixologik xususiyatlari.
- 235 **Baqoyeva M.Sh., Usmanova M.N.**
Evolution of school bullying in various social countries and their consequence
- 239 **Barnoyev B.B., Baratov Sh.R.**
Jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan o'smirlarni o'rganishning psixologik xususiyatlari.
- Berdiyeva G.Jh.**
242 Социально-психологическая характеристика конфликтных ситуаций между учителем и студентом.
- 246 **Boymurodov N.R., Ostanov Sh.Sh.**

- O'smirlar kreativligi psixologik-pedagogik muammo sifatida.
248 **Джўракулова, Д.Ф**
Шахс ижтимоийлашув жараёнида айбдорлик хиссининг тутган ўрни.
- 252 **Ismatova D.T.**
Oilada ota-ona va farzand munosabatlarining o'ziga xosligi.
- 254 **Kuziyev O.Ch.**
Shaxs ijtimoiylashuvining psixologik tavsifi va liderlik fenomeni.
- 257 **Saidova M.Z., Maxmudova Z.M.**
Qo'riqlash xizmati xodimlari kommunikativ kompetentligi.
- 261 **Jo'rayeva Z.A., Maxmudova Z.M.**
Stressli vaziyatlarda koping xulq-atvor strategiyalari.
- 265 **Mo'minova D.M**
Norasmiy kriminal guruhlarining o'smir delikvent xulq-atvoriga ta'siri.
- 268 **Muxamedova M.K., Nazarov A.M**
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda artterapiya orqali tasavvur va ijodkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.
- 270 **Nazarova M.M.**
O'zbekiston ta'lim tashkilotlarida chet ellik talabalarning madaniyatlararo aloqa va ko'p madaniyatli muhitga moslashishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.
- 272 **Abdullayev A.Sh.**
Pedagog faoliyat samaradorligini ta'minlashga oid sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-psixologik qarashlari.
- 276 **Ostonova L., Nazarov A.M.**
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatiga moslashuvining psixologik xususiyatlari.
- 279 **Olimov L.Y., Savriddinova G.S.**
O'smirlarda jinoyat motivlarini keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik omillar.
- 282 **Ulug'ova Sh.M.**
Tadbirkor ayolarning ikkilamchi kasbiy faoliyatga moslashuv muammolari.
- 284 **Nazarov A.M., Akbarova M.E.**
O'smirlarda ruhiy barqarorlikni ta'minlashning o'ziga xos psixologik xususiyatlari.
- 287 **Алексеева Ж.Б.**
«Нейрографика» как метод снижения тревожности и увеличение ресурса жизнестойкости в коррекции психических состояний личности.
- 290 **Ахмадов Н.Р.**
Нормализация адаптационного процесса через реабилитацию дезадаптированных подростков.
- 295 **Беляева О.А.**
Школа юного педагога как инструмент амплификации процессов профессионального самоопределения старшеклассников.
- 298 **Жабборов А.М.**
Копинг хулк – атвор ва унинг намоён бўлиш хусусиятлари.
- 301 **Ismatova F.A., Elov Z.S.**
Huquq-tartibot organlari psixologining kasbiy kompetentsiyasining shaxsiy komponentining tuzilishini o'rganish.
- 305 **Исмамова Д.Т.**
Социально-психологические особенности коррекции дезадаптивных подростков.
- 308 **Ismatulloev A.N., Ostanov Sh.Sh.**
Gender features of the locus of control in early youth.
- 310 **Kudratov A.I.**
Shaxsda ma'naviy ehtiyojlar shakllanishi muammosining mamlakatimiz ilm – fanidagi talqini.
- 313 **Қаршиева Д.С.**
Педагогларда касбий стресс ва уни бартараф этишининг психологик механизмлари.
- 315 **Maxmudova Z.M.**
Xodim kasbiy sifatleri va kompetentligining o'zi xosligi.
- 320 **Михеева М.Б.**
Принятие решения в деловых контекстах: проблема выбора.
- 323 **Тохилович Н.Ж., Усманова М.Н.**
Социально-психологические механизмы интернет зависимости у студентов.
- 326 **Nakimova F.X., Sayfullaeva Q.A., Hojiyeva N.N.**
Masofaviy ta'limni shakllantirishda psixologik xizmatning o'rni.
- 330 **Останов Ш.Ш.**
Психологические особенности развития креативности студентов посредством арттерапии.
- 332 **Пенечко О.К.**

- Направленная визуализация как метод самосохранительного поведения.
334 **Ramazonova Sh.F.**
Ota-ona va bola munosabatlarini mustahkamlashning psixologik omillari.
- 337 **Ponuev M.Yu.**
Psixologiyada шахс ижтимоийлашув жараёнлари муаммоси.
- 340 **Карпова Е.В., Трубохина В.А.**
Мотивация учебной и профессиональной деятельности первокурсников.
- 342 **Egamberdiyev M.S. Ubaydullayeva N.F.**
Psixologiyaning arxitekturadagi roli.
- 345 **Учаев Н.М.**
Ведущие компоненты интегративного уровня саморегуляции сотрудников росгвардии.
- 347 **Файзиева М.Х.**
Узбек халқ психологиясида психологик ҳимоя механизмининг ифодаланиши.
- 351 **Хасанов Р.А.**
Особенности взаимосвязи копинг-стратегий с волевыми качествами личности спортсменов.
- 355 **Xurramova O.X., Sattarova G.I.**
O'spirin yoshidagi o'quvchilarning kasbiy kamoloti bosqichlari.
- 357 **Южакоев В.А.**
Показатели качества идентичности личности.
- 359 **Asatova Sh.T.**
Muloqotning shaxslararo munosabatlarda tutgan o'rni.

5-SHO'BA.

AMALIYOTCHI PSIXOLOGNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH MUAMMOLARI

- 362 **Nazarov A.M.**
Talabalarda ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirishning psixologik usullari.
- 365 **Oripova M.U., Ostanov Sh.Sh.**
Talabalarni kreativligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.
- 368 **Otaniyozov O.U.**
O'smirlarda ma'naviyatni shakllantirish va rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.
- 370 **Qodirova D.M.**
Communicative component ability of future psychologists.
- 372 **To'rayeva Z., Xudoyqulova G.B.**
Компьютер o'yinlari va unga tobe o'smirlarning o'ziga xos psixologik xususiyatlari tahlili
- 375 **Xaloqova M.V., Ostonov Sh.Sh.**
Psixologiya yo'nalishi talabalarini matematik tafakkurini rivojlantirishning psixologik asoslari.
- 378 **Кадырова Д.М**
«Социально-психологическая характеристика факторов профессиональной компетентности будущих психологов».
- 380 **Kulatova S.Y.**
O'smirlarda destruktiv axborotlarni yuzaga kelishining ijtimoiy-psixologik omillari.
- 383 **Лидская Э.В.**
Типы коммуникативных взаимодействий старшеклассников в разных ситуациях общения
- 385 **Beknazarova L.S.**
Ta'lim mazmun samaradorligini oshirishda innovatsion interfaol usullarning o'rni.
- 387 **Maxmudova Z.M.**
Qo'riqlash xizmatida psixologik faoliyatning o'ziga xos tomonlari va kasbiy kompetentlik omillari.
- 392 **Миронченко Н.В., Дорохова С.В.**
Особенности восприятия дружбы современной молодежью.
- 397 **Наркевич А.В.**
Особенности использования репрезентативных систем человека в медитативных практиках.
- 399 **Рустамов Ш.Ш.**
Особенности использования математических методов в развитии профессиональной компетенции.
- 401 **Торик М.**
“Пантомима листа” как проективная методика в поле практической психологии.
- 403 **Худоёроев А.Н.**
Социально-психологические условия развития профессиональной рефлексии у практикующих психологов.
- 407 **Hafizova F.B.**
Bo'lajak psixologlarning matematik kompetentligini oshirishning psixologik xususiyatlari.

- 409 **Бабарахимова С.Б.**
Исследование особенностей суицидальных тенденций у подростков.
- 411 **Исаева Г.А.**
Психологический подход к роману бондарева «горячий снег».
- 417 **Нарзуллоева С. С., Усманова М.Н.**
Основные признаки рискованного поведения подростков.
- 420 **Саттаров Т.Ф., С.Б. Бабарахимова., К.Р. Файзуллаева., З.Ш. Мирворисова.**
Эффективность проведения психотерапевтического вмешательства у пациентов с параноидной шизофренией.
- 423 **Оlimov L.Y., Bahronova M.O.**
O‘smirlar ma’naviyatini yuksaltirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.
- 427 **Odilova S.K., Nazarov A.M.**
Dezadaptatsiyalashgan o‘smirlarni korreksiya qilishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari
- 429 **Rogozina O.H., Davydova Yu.A., Muxamedjanova A.A.**
Исследование студентов по методике сан: самочувствие, активность, настроение.
- 433 **Zakirov S.S., Salikhov Sh.M.**
Psychological mechanisms of emotional intelligence.
- 435 **Темирова Д.Х., Зарипов Г.Т.**
Роль интеллектуальных имитаций в развитии профессиональных компетенций обучаемых
- 437 **Raximova I.I., Sayitova N.X.**
Компьютер o‘yinlariga tobelik shaxs ruhiyatiga ta’sir jarayonining psixologik ahamiyati
- 441 **Sayitova Umida Hikmatillo qizi,**
Talabalar internetga tobeligining psixologik profilaktika chora tadbirlari
- 445 **Киличев А.А.**
Влияние активных методов обучения на развитие личности студентов
- 449 **Усмонова С.М.**
Ижтимоий психологияда психологик химоя ва шахсий ривожланиш муҳим жараён сифатида
- 452 **Mo‘minov D.M., Davlatov I.Sh.**
O‘smirlar deviant xulqi psixo-profilaktikasida ota-onaning ro‘li
- 455 **Muxtorov M.X., Muxtorov Э.М.**
Беморнинг врачга ишончи - даволаш самарадорлига муҳим омили
- 460 **Yunusova G.S.**
Onalarning individual va yosh xususiyatlari to‘g‘risidagi psixologik bilimlarga ega bo‘lishlarining farzand tarbiyasidagi ahamiyati
- 464 **Abdukadirova L.Y.**
Raqamli dunyoda klipli tafakkur va kitobxonlik madaniyati masalasi
- 468 **Abdukadirova L.Y., Qurbonova B.**
Raqamlashtirish sharoitida o‘smirlarning psixologik salomatligini mustahkamlash xususiyatlari
- 472 **Rajabov M.Ж., Rajabova X.A.**
Psixologiyada “qora uchlik”, ularning xususiyatlari hamda ularga qarshi turishga tavsiyalar
- 475 **Nuriddinov R.S.**
Bo‘lajak pedagoglar ruhiy salomatligining ijtimoiy-psixologik omillari
- 477 **Файзуева У.А.**
Профессионально-педагогическая компетентность педагога

